

SALOMAT VAFO HAMDA ZULFIYA QUROLBOY QIZI HIKOYALARIDA ONALAR MAS'ULIYATI TALQINI

**Abdumurodova Dilrabo,
Jizzax DPI o'zbek tili va adabiyoti
yo`nalishi magistranti**

“Zamonaviy o'zbek hikoyachiligi o'zining salkam yuz yillik bosib o'tgan yo'lida xalqning dardini, jamiyatning ma'naviy hayoti muammolarini ilg'ashga, idrok va ifoda etishga intilib keldi. Bu zamonaviy o'zbek hikoyachiligining tarixiy taraqqiyoti bosqichlaridagi bosh xususiyatdir... Cho'lpon, Fitrat, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy hikoyalaridan boshlab, Shukur Xolmirzayev, Zohir A'lam, Xayriddin Sultonov hikoyalarigacha kichik epik janrning badiiy barkamol namunalarida mazkur fazilat balqib turadi. Bu o'zbek hikoyachiligining ijtimoiy-badiiy quvvatini, ma'no-mundarijasini tasdiqlaydi”.¹

Xalq dardini, jamiyatning ma'naviy hayoti muammolarini ilg'ash, idrok va ifoda etish, uni o'z o'quvchisiga manzur va maqbul etish adiba Saida Zunnunova ijodida qanday kechdi? Xuddi ana shu vazifani bajarish bilan adiba o'zbek hikoyachiligi rivojiga qanday hissa qo'shdi?

Saida Zunnunova hikoyalarining deyarli barchasi an'anaviy yo'lda yozilgan bo'lib, ularda muallif hayotni, voqelikni, individual taqdirni realistlik aks ettirganligini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, yozuvchi hikoyalarining barchasida ijtimoiy mazmun teranligini ko'rishimiz mumkin. Hatto oila davrasida, maishiy hayot bag'rida tasvirlangan kichik muammolar ham mohiyatan ijtimoiylik kasb etadi va adiba hikoyalarining o'ziga xosligini belgilaydi. Adiba hikoyalarini bizning kunlarimmizda ham o'qishli qilayotgan jihat ham aslida shu bo'lsa kerak. Zero, oila deb katta bir mas'uliyatli yukka yelka tutgan ayol yo erkak, hamma davrlarda ham eng nozik masala hisoblangan farzand tarbiyasi, xuddi shunday nozik masalalar sirasiga kiradigan qaynana va kelin munosabati, tinch-osuda kunlar qadri va ana shunday ne'matni yaratishda jon fido qilgan otalar xotirasi, yodi masalasi – adiba hikoyalarining ma'no-mundarijasini tashkil qiladi. Guvohi

¹ Adabiy turlar va janrlar nazariyasi. Uch jildlik. 2-jild. – T.: fan, 1991-yil, 102-bet.

bo'layotganimizdek, yuqoridagi masalalar hamma davrlar uchun ham o'z dolzarbligini yo'qotmaydigan masalalar. Mumkin talqin, ifodada o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Ammo mohiyat baribir aslicha. Adibaning quyidagi she'riy misralari uning o'z asarlari haqidagi bashoratiga o'xshaydi:

Roziman hayotim, taqdir, umrimda,

Shoirlik mehnati, qismatidan ham.

Siz bilan jimgina olisdan turib,

Dard-u quvonchimni ko'raman baham.

Shundayin jimgina so'zsiz, so'roqsiz,

Kirib ham borurman uylaringizga.

Shundayin jimgina so'zsiz, so'roqsiz,

O'rnashib ham olgum o'ylaringizga. [257-bet]

Darhaqiqat, adibaning yozilganiga 60 yil bo'layotgan "Qo'llar" hikoyasi o'zbek onasining buyuk bardoshi, sabr-u qanoati, fidoiyligini tarannum etgani bilan qiziqarli, hayotiy.

Ikkinchi jahon urushi fojialariga bag'ishlangan asarlar o'zbek adabiyotida talaygina. Ularda qonli jang maydonlari, askarlarimizning fidokorona kurashlari, qahramonliklari, birda mag'lub, birda g'olib urushdagi vaziyatlar, holatlar ta'sirchan ifoda etilgan. Shu bilan birga erlari, otalari, aka-ukalarini frontga jo'natib, qirq kokil sochlarini boshga tugib, bellarini bog'lab, ayolliklarini unutib, erkaklar o'rniga ham ishlab, urushdagi g'alabani ta'min etishga o'zini fido etgan ayollarga ham bag'ishlangan asarlar bor.

"Qo'llar" hikoyasining qahramoni Malika xola ana shunday taqdir egasi. Hikoyaga "Qo'llar" deb nom berilgan. Inson buyuk mehnatlarini qo'llari yordamida bajaradi. Ko'ngildagi buyuk tilaklar, ezgu maqsadlar, baxt va tugallik, farovon-osoyishtalik inson mehnati, qo'llari orqasidan keladi.

Urush boshlanganda birinchilardan bo'lib turmush o'rtog'ini jangga kuzatgan Malika xola o'sha payt yoshiga ham to'lmagan farzandi Baxtiyor bilan qoladi. "Shu paytgacha doim ro'zg'or ishi bilan band bo'lgan Malikaxon zavodga ishga kirib ketdi. O'g'lini bo'lsa bog'chaga joylashtirdi. Mehnat alamini

yengillashtirganday, dardiga darmon bo'lganday tuyuldi. Taqdiri unikiga o'xshagan ko'p yosh ayollar unga sirdosh, do'st bo'ldilar. Birovining eridan xat kelsa, yuztasi teng quvonishda, bittasining boshiga tushgan tashvishini hammasi birga tortishdi. Malikaxonning eridan qora xat kelib, boshiga qora kun tushganda ham ana shu ahil oila unga hamdard va tayanch bo'ldi. Bukilishiga, yiqilishiga qo'ymadi". [262-bet]

Hikoya ma'lum bir detallar asosiga qurilgan. Bu detallar hikoya sujetida ma'lum bir vazifani bajarishdan tashqari, yana o'ziga xos ma'no qatlamlariga ham egaki, bu mahoratli adibaning o'ziga xos topilmalar deyish mumkin. Bu detallarning barchasi urushdan qaytmagan turmush o'rtog'i bilan boshlanadi. Balki g'oyatda o'z o'rnida ishlatilgan mana shu detallar yuzlab mana shu mavzuga bag'ishlangan hikoyalar ichida "Qo'llar"ning o'ziga xosligini, originalligini belgilab turgan bo'lsa ajabmas: "Idish-tovoq yuvganidanmi, qo'lidagi uzukning ko'z atroflari xiralashib qolganday edi. Malika xola igna bilan uni yaxshilab tozaladi. Keyin kaftiga olib ancha vaqtgacha tikilib o'tirdi-da, yana ohista barmog'iga soldi. Bu uzukni to'y kuni eri taqib qo'ygandi. O'sha paytda uzukni bezagan bu tosh ko'zlar, keyincha uning ko'zlariga aylandi-yu, hamma joyda Malikaxonni kuzatib turdi, qoramoy ichida kulib qaradi, yiqilmoqchi bo'lganda qo'lidan tortdi".[260-bet]

Hikoyadagi yana bir detal asar g'oyasini ochishdagi kalit vazifasini o'taydi. "O'sha kuni Malikaxon ishdan qaytgach paltosini yechib ilar ekan, erining osig'liq turgan paltosiga yuzini o'rab o'kirib-o'kirib yig'ladi. Ana shundan keyin palto bilan kastyum Malikaxonga yana ham azizroq tuyulib qoldi. Avval sevgan kishisining kiyimi bo'lsa, endi undan yodgor bo'lib qolgan edi". [262-bet]

Malikaxon eridan qoraxat olgandan keyin ham bu kiyimlarni xuddi turmush o'rtog'i tirikdek, ular bilan yashashda davom etayotgandek qishda olib chiqib o'z kiyimlari qatoriga qo'yar, yozda kuya dori sepib, avaylab olib qo'yar edi.

Uzuk, palto Malika uchun eridan qolgan shunchaki moddiy buyumlar emas, balki dunyodagi eng aziz insonning ruhi, yodi bilan uni bog'lab turuvchi, uni yashashga, o'g'illari Baxtiyorni ham ota, ham ona bo'lib voyaga yetkazib, oyoqqa

turgazishgacha bo'lgan mas'uliyatli bir davrda katta ma'naviy tirgik vazifasini o'tadi.

Malika xola bugun o'g'li va kelinining nikoh to'ylari kechasida turmush o'rtog'i oldidagi vazifani halol bajarganligini, undan qolgan yodgorlik – Baxtiyorni elga, yurtga sodiq farzand qilib o'stirganini, mazlumlar oldida yuzi yorug'ligini yana bir karra his etdi.

“Malika xola ko'ziga kelgan yoshni zo'r kuch bilan qaytarib boshini ko'tardi:

- O'g'lim, shu vaqtgacha otangning mana bu kiyimlarini senga kiygin demagan edim. Bugun olib kirdim. Endi uylik-joylik bo'lding. Katta kishi bo'lib qolding. Endi bularni kiysang bo'ladi. Bayram kunlarida, yaxshi kunlarda kiygin. Ayab-asrab kiygin.

Malika xola titragan qo'llari bilan kiyimlarini o'g'liga uzatdi. Tomog'iga kelgan allanarsani yutdi-yu ochiq, mehribon chehra bilan keliniga o'girildi:

- Qizim, qaynatangiz bo'lganda, bilmadim, sizga nimalar sovg'a qilar edi. Mana bu uzukni to'y kuni menga taqib qo'ygan edi. Bugun o'sha kishi uchun men sizga taqib qo'yaman. Hamma vaqt taqib yuring. Ziynat uchun emas, hurmat uchun taqing. Qo'llaringiz mening qo'llarimdek mehnatkash, halol bo'lsin. Lekin mehnatni mendek yolg'iz emas, birga qilinglar, qo'sha qaringlar”. [263-bet]

Malika xola palto, uzuk misolida aslida o'g'li bilan keliniga otalarining pok xotirasini avaylab-asrashni topshirdi. Agar biz bundan yanada kengroq xulosa chiqarsak, hayotimizda Malika xola kabi sadoqatli, vafodor urush bevalari juda ko'plab bo'lgan. Ularning ibratli hayoti, urushda halok bo'lgan millionlab jangchilarning qahramonliklari bugungi kunda har birimizga berilgan, e'zozlab, hurmatlab keyingi avlodga topshirishimiz kerak bo'lgan omonat. Qachonki har bir avlod urush nimaligini, uning xunuk oqibatlarini hech qachon unutmasin.

“Qo'llar” hikoyasini adiba 1962-yilda yozgan. Xuddi shu mavzuda 1963-yilda yozilgan “Ruh bilan suhbat” dostoni nafaqat adiba ijodida, balki o'sha davr adabiy jarayonida ham katta shov-shuvlarga ega asar bo'lgan edi. Bu dostonning bizlar uchun ham, bizning kunlarimiz uchun ahamiyati beqiyos. Chunki dostonida ona obrazi orqali urush tufayli o'z yoridan ajralib, farzandini yakka o'zi katta

qilgan, umridan yarim, baxtidan kemtik ayollarning alamli iztirobi, urushga nisbatan cheksiz nafrati ochib berilgan.

Dostonning boshlanishi xuddi “Qo‘llar” hikoyasidek. Urush bevasi farzandini yakka o‘zi oyoqqa turg‘izib, voyaga yetkazib, uylantirgan, nikoh to‘yi tugagan. Mehmonlar ketib, to‘y tarqagach, yolg‘iz onaning ko‘nglidan o‘tgan iztiroblar, uning marhum jangchi erining xayolan ruhi bilan suhbatida asosida doston sujeti yaratilgan. Faqat dostonda ijtimoiy ma‘no hikoyaga qaraganda teranroq, chuqurroq.

Jangchi ruhi ona bilan suhbatda hali ham yer yuzida urush olovini yoquvchilar borligini, ular tufayli yer yuzida tinchlik juda-juda omonat ekanligini aytadi.

Shoira “O‘liklar asli tiriklar, ularning ruhi barcha narsadan xabardor” degan aqidaga suyanib, jangchi erining bezovta ruhi bilan o‘z zamonasining urush va tinchlik siyosati borasida jo‘yali fikr yuritadi. Adiba hayot haqiqatini g‘oyatda mahorat bilan yaratilgan sujet asosida talqin qiladi:

Hammamiz shu yerda, o‘q, tomir bo‘lib,

Yerni yelkamizda tutib yotibmiz.

To‘lg‘anib, g‘azabga, tashvishga to‘lib,

Vetnam ustida bomba, o‘qlarning,

Tezroq tinishini kutib yotibmiz.

Do‘stlar qabrimizga qo‘yayotganda,

Tinch yoting, deyishgan boshlarin egib,

Yerda shuncha g‘avg‘o bo‘layotganda.

Bajarmoq mumkinmi ular o‘gitin,

Juda ham notinchmiz, juda notinchman,

Qanday orom olay yer ko‘rpasida

Suv osmon avlodim tursa duchma-duch

Hayot-u o‘limning qoq o‘rtasida.

O‘rmonni yoqmoq-chun kifoya gugurt,

Atomni ushlagan vahshiy qo‘llar bor, –

deb kuyunib iztirob chekadi jangchi ruhi.

Dostonda shoira agar Yer yuzida tinchlik qaror topmasa, insonlar hayoti tahlikada bo'lsa, hech qachon tinch kunlar uchun aziz jonini bergan insonlarning ruhi orom topmasligini asar yozilgan paytdagi jahon miqyosida kechayotgan qurollanish poygasining xunuk oqibatlariga ishora qilgan holda juda hayotiy tasvirlaydi. Doston har bir inson tinchlik uchun mas'ul ekanligini, go'daklarning osoyishta ulg'ayishi, ayollarimizning chin onalik baxtini tuyib yashashlari, keksalarimizning betahlika uyqusi, Vatan ravnaqi, el farovonligi uchun faqat va faqat tinchlik zarurligi haqidagi ruhning odamlarga qarata aytgan so'zlari "Qo'llar" hikoyasidagi Malika xolaning so'zlari bilan uyg'un:

Itni qopmaydi deb bo'lmas, azizim,

Tushlaringga kirib, sergak bo'l deyman.

Odamlar! Dog' surtmang aql yuziga,

Dunyoning umriga tirgak bo'linglar.

Qachon urush oti o'chsa olamdan

Ona tuproq ichra uzatib oyoq,

Xotirjam bo'larkan avlod, bolamdan.

Xayol -xotirangdan ketaman yiroq. [223-bet]

Adibaning "Kechikish" hikoyasi ham urush oqibatlaridan chetda qolmagan yana bir oila haqida. Faqat bu yerda muammo boshqacharoq qo'yilgan. Hikoya markazida urush bevasi obrazi emas, uning o'g'li Xurshidbek turadi. Kitobxon Xurshidbekni marhuma onasining so'nggi istaklarini bajara olmaganligidan cheksiz ruhiy iztirobli holatda uchratadi. Shuning uchun ham hikoyaning nomi "Kechikish".

Urush payti eridan qoraxat olgan onasining hayotini bir-bir ko'z oldidan o'tkazar ekan, Xurshidbek xokisor, mushtipar bu ayolning fidoiyligini, beminnat, beta'ma farzandiga jonini tikib yashaganini o'ylab hech o'zini kechira olmas edi. "...onasi tekis hayot kechirmadi. Kelinchakligida tul qoldi. Ota diydorini ko'rmagan farzandining ustida balki kechalari yum-yum yig'lab chiqqandir. Qaynana, qaynatasini ko'mdi. Bitta qaynsinglisi janjal qilib hovlining yarmini olib,

birovga sotib yubordi. O'rtaga devor urildi. Bir parcha hovli bilan yarmi sotilgan uyda qolishdi. Qizining bebaxtligidan xafa bo'lib ketgan buvisi ham bevaqt olamdan o'tdi. Yagona tasalli beradigan kishisidan ham ajralgan ona butun umidini Xurshidbekka tikdi. Avvallari artelda, keyin fabrikada ishladi. O'g'lini yaxshi kiyintirdi, yaxshi yedirdi. Lekin charchab, ishdan bir ahvolda qaytganini Xurshid necha martalab ko'rgan, yana o'sha charchoqlik bilan mashina g'ildiratib ish tikkanlarida uning biqinida allamahalgacha uxlamay o'tirardi. O'g'lining bo'yi cho'zilgan sayin onaning quvonchi ortgandek, qaddi tiklanayotgandek bo'lardi. Bu quvonchni ham Xurshidbek uning ko'zlaridan sezib turardi. Balki ko'rmagan baxti, topmagan huzurlarini mana shu o'g'ilchasidan dilida kutib, umid qilib yashagandir. Lekin o'g'li nima qildi?" [335-bet]

Xurshidbekning onasi ham barcha urush bevalari qatori urushda halok bo'lgan erining yodi bilan yashar, qabri noma'lum erini ilinj bilan kutardi. Onaning vafotidan ilgariroq Belorussiya tomonlarga sayohatga borgan tanishlari bir o'rmon hududidagi qabristonda Xurshidbekning otasi ham dafn etilganini, ismi va familiyasi aniq yozib qo'yilganini ko'radi. O'sha yerlik aholi ham bu razvedkachining qabri deyishadi. Xurshidning otasi urush paytida razvedkachi bo'lganini onasidan eshitgan edi.

Onasi bu xabarni eshitib, bezovtalanib qoladi, tinchini yo'qotadi. Umr bo'yi kutgan insonini o'zini ko'rolmasa-da, qabrini bir ko'rib, ziyorat qilib kelish istagi tug'iladi. Ammo buni o'g'li bilan keliniga aytolmaydi. Chunki ular dam olib kelish uchun yo'llanma olib qo'yishgan edi.

Xurshid onasining ko'nglidan kechayotgan gaplarning barchasini his etib turgan bo'lsa ham o'z huzurini buzgisi, xotining kayfiyatini buzib, dam olishni bekor qilgisi kelay, ilinj, umid dunyosida o'tirgan onasiga yanagi yozda, albatta, otasining qabriga olib borishini aytib, go'yoki o'z vazifasini ado qilganday bo'ladi.

"Xurshidbek Issiqko'ldan qaytib kelganda onasining rangi ko'ziga g'alatiroq ko'rindi. Otasining bir marta unutilgan dardi qayta paydo bo'lganida keksa qalbi ko'tara olmadimikan? O'tgan umrining ko'chalariga xotiralar, balki hadeb boshlab ketavergandir, o'y o'ylab o'zini o'zi yegandir. Balki o'rmonda jimjitgina turgan

qabr ustiga dod-faryod bilan xayolan necha marta borib kelgandir. U sog'ligidan shikoyat qilmadi-yu, birdaniga yotib qoldi. Hammani armonda qoldirib to'satdan bir kechada olamdan o'tdi- qo'ydi". [336-bet]

Adabiyotda onalari oldida o'z farzandlik burchini bajara olmay armonda qolganlar haqida yaratilgan turli janrdagi asarlarni bilamiz. Bu armonning, bu g'ashlikning zalvarini, yukini shoir Mirtemir o'zining "Onaginam" she'rida bor bo'yi bilan gavdalantirgan. Hikoya qahramoni Xurshidbek ahvolini kuzatayotgan o'quvchi tiliga beixtiyor:

Tovonimga chaqir tikanakday botguvchi –

g'ashlik,

Bedavo sizlovuqday sizlatguvchi –

g'ashlik.

Jigarimni qiymalab ahyon-ahyon

Chuchvaraga chekkuvchi –

g'ashlik – misralari keladi.

Adiba Xurshidbekning alam iztiroblarini, so'nggi nadomatini shunday tasvirlaydi: "Xurshidbek bunaqa bo'lishini sira o'ylamagan edi. Bo'lmasa, hamma narsadan kechib, har qanday sharoitda ham onasini otasining qabriga olib bormasmidi?! Ona bechora yuragida yig'ilib yotgan hasratlarini o'sha tuproqqa unsizgina to'kib kelsa, balki yengil tortarmidi? Uning bittagina so'rovini, bittagina istagini rad qildi-ya? Qanday ona edi, qanaqa ona edi-ya? O'lib ham unga og'irligini solmadi. Hamma narsasini tayyorlab, taxt qilib qo'ygan ekan... Xurshidbek ingrab yubordi". [336-bet]

Adiba o'z hikoyalarida o'zbek ayollarining, onalarining xilma-xil obrazlarini yaratdi. Ularning aksariyati oilam, bolam-chaqam deb yashaydigan, ming bir jon bo'lib farzandlari baxtli, ro'zg'orlari but bo'lishi uchun jon kuydiradigan onalar qiyofasi. Saida Zunnunova yaratgan Umriniso buvi, Bahri xola, Malika xola, Soliyaxon, Aziza kabi obrazlar qiyofasida ma'naviy poklik, iymon-e'tiqod, o'zbek ayollariga, onalariga xos bag'rikenglik, keng fe'llik, mehr va muruvvat chiroy ochib turadi. Bunday onalar – jamiyat ko'rki.

Yozuvchi va adabiyotshunos olim Xurshid Do'stmuhammad: "... Badiiy tafakkurning yangilanishi (sog'lomlashuvi) jarayonlari ko'zga tashlana boshlagan kezlardanoq insonni jo'n va yuzaki tushunish, biryoqlama talqin etish hollari sezilarli darajada kamaydi. Har qalay, "oqpadarlik – yomon, ichkilikbozlik, poraxo'rlik – "illat" singari "g'oyalar", nasihatlar bayroq qilib ko'tarilgan hikoyalar matbuot sahifalarida kamaydi. Ishlab chiqarish mavzusidagi jasoratlar madhi o'rnini qahramonning shaxs sifatidagi kamolini izlash-tasvirlashga moyillik kuchaydi. Qahramonning ijobiy yo salbiyligi mezonlari o'zgardi. Bularning bari hikoyaning sujet qurilishini, tasvir maromini, konfliktlar tabiatini yangiladi",² - deydi.

Darhaqiqat, Zulfiya Qurolboy qizining "Yozsiz yil" hikoyasida avtohalokat tufayli nogiron bo'lib qolgan yigit va uning onasi iztiroblari, azob-u uqubatlari badiiy ta'sirchan ifoda etilgan.

"Yozsiz yil" hikoyasi inson dard-u alamlari, xo'rlik azoblari, aybsiz aybdorlik azoblarining badiiy tadqiqi ekan, hikoya qahramoni Sobirning azoblarini, ham jismoniy, ham ma'naviy dardlarini o'z yelkasiga olib, ularning barchasini o'z yuragida o'tkazgan onasi – Buvgul enaning matonatiga, bardoshiga so'zdan tiklangan yodgorlik sifatida bu yaratiq kitobxon qalbidan joy oladi.

Sobir bolalikdan o'smirlik ostonasiga o'tar paytda avtohalokatga uchraydi. Onasining mehri, o'rtoqlari bilan bolalikning beg'ubor dunyosida o'sib kelayotgan bolaning taqdiri, qismatini bir onda zulmat qopladi.

"Sirdan qaraganda, Sobirning qo'l-oyog'i butun, bir yeri tilinmagan-shilinmagan, ammo uning ichki a'zolari qattiq lat yegandi: jigar qisman ezilgan, bitta buyrak ishdan chiqqan, ikkinchisi yarimjon, peshob chiqarish uchun Sobirning biqinida har doim maxsus naycha va banka osilib turardi. Erkakligidan ayrilgani esa hammasidan o'tib tushdi. Sobir endi o'rtoqlari bilan ko'cha-ko'ya tepkilashib yura olmas, daladan xurjun-xurjun o't yulib kelolmasdi, o'zini avaylashga majbur edi, bola ekan, onasining barcha talablariga bo'yin egardi.

² X.Do'stmuhammad. Milliy hikoya: izlanish, yutuqlar, istaklar. Ozod Vatan aodati. Besh jild. T.: ADIB, j5. 2013. 230-bet.

Biroq ona-bola qancha ehtiyot bo‘lishmasin, qishning sovuq kunlari o‘z ta’sirini o‘tkazmay qo‘ymasdi. Sobirning isitmasi ko‘tarilib ketardi”.³

Sobirdan bolaligini, beg‘ubor o‘smirligini, komil yigitlik zavq-shavqini tortib olgan – avtohalokatni sodir etgan kimsa Mahkam boyvachcha sudlandi, qamaldi. Lekin o‘n yillik qamoq muddatini ikki yilda o‘tab kelib, hech nima bo‘lmagandek Kamazini guvullatib haydab yuraverdi.

Hikoyada bir qarasangiz bebaxt Sobirning kechmishi, alam-iztiroblarga to‘la yigitlik davri, visolsiz muhabbati tarixi bitilgandek tuyuladi. Asar ichiga kirib borsangiz, aslida, hikoya bebaxt o‘g‘lini ko‘rib, undan-da baxtsizroq bo‘lgan ona, kasal, yarimjon o‘g‘lini ko‘rib, undan-da yarimjon, undan-da bemorroq bo‘lgan onaning dard-u g‘amiga guvoh bo‘lasiz. “O‘g‘lingizni erkalatib yuboryapsiz, uni ko‘ngliga ko‘p qarayapsiz, - Qachon qaragam, podaning ketidan yugurib yurasiz, shu ishlarni qo‘ying endi, ena! Ulingizniyam ishga soling-da, yigirmadan oshdi, axir”, - deya, doim onaning iztiroblari ko‘payishiga, o‘y-xayolining parishon bo‘lishiga sabab bo‘ladigan katta o‘g‘il Sobirjonning – ukasining shu ahvolidan doim yozg‘irib yuradi.

Nafaqat vujudi shikasta, balki birin-ketin uylanib, ayoli bilan baxtli yashayotgan o‘rtoqlarining hayot tarzlariga guvoh bo‘lib, o‘zi hech qachon shunday to‘kislikka erisha olmaydigan Sobirjon bor dard-u g‘ami bilan onaning qarshisida turadi. Ammo ona bunday g‘amning qarshisida yakka-yu yolg‘iz. Ona ham o‘g‘ilning kasali bilan kurashadi, ham ruhiyatidagi ziddiyatlari bilan kurashib yashaydi.

O‘rtog‘ining to‘yiga borib kelganidan so‘ng, o‘g‘lining ruhiyatida ijobiy o‘zgarishlarni sezgan ona hushyor tortadi. Hatto katta o‘g‘li bilan bo‘lgan suhbatda onaning yuragiga iliqlik kirganday bo‘ladi:

- “- Ena, Sobirning nima ishlar qilib yurganidan xabaringiz yo‘q.
- Nima ish qilibdi? – bilmaganga olib so‘radi Buvgul ena.
- Do‘xtirga qatnab yuribdi!
- Nima qipti borsa...

³ Zulfiya Qurolboy qizi. Yozsiz yil. Qadimiy qo‘shiq: hikoyalar. T.: “O‘zbekiston”. 2001, 127-bet.

- Do‘xtirlar yordam berolmasligi ma’lumku, jonini saqlab berdi bizga, shuning o‘zi katta gap. Nega buni ulingizga tushuntirmaysiz?!

Buvgul ena yerga qarab qoldi.

- Qanday aytaman buni, - dedi u bir ozdan keyin ayanchli ovozda.
- O‘zingiz aytolmasangiz, menga ixtiyor bering, axir. Kimdir achchiq bo‘lsayam haqiqatni aytishi kerak-ku! Aytganday, sizga yana bir xabar bor, Sobiringiz sayxonlik bir qizminan gaplashib yurganmish!
- Yo‘g‘-e? – Buvgul ena quloqlariga ishonmagandek, to‘ng‘ichining yuziga ajablanib boqdi.
- Ha, anavi Anvar degan jo‘rasi Sayxondan uylandiku, shuni to‘yida tanishib qolganakan
- Yo‘g‘-e... - onaning mudom g‘am-tashvish arimaydigan yuziga iliq tabassum yoyilgan. – Sobirjon qizlarminan gaplashar ekanmi?.. (132-bet).

Ona farzandining yuragidan nima o‘tayotganini, Sobirjonni ko‘proq vujudidagi og‘riq emas, balki o‘zini sevishga, oila qurishga o‘jiz, majruh sezishi qiynashini yaxshi bilardi.

Shuning uchun katta o‘g‘li bilan bo‘lgan suhbatda, o‘g‘lining:

“- Sevgi uni ado qiladi axir!” – degan gapiga:

“- Hech kimni yaxshi ko‘rmasdan ado bo‘lgandan ko‘ra, birovni yaxshi ko‘rib ado bo‘lgani durust emasmi?! – dedi ona dona-dona qilib, so‘ng yig‘lamsiragancha o‘zini eshikka urdi”. (133-bet).

Ona xuddi naqd ajalga chora topgandek, yayrab ketadi. Chunki u so‘nib, tugab borayotgan o‘g‘lini faqat muhabbat qutqara olishi mumkinligini yaxshi bilardi. Ammo Sobirjonning Marvarid ismli sayxonlik qiz bilan boshlangan muhabbati qizning otasi qarshiligiga uchraydi. Ming bir istihola, o‘y-xayollar bilan sovcilikka borgan Buvgul ena qizning otasidan:

“ – Qanday haddingiz sig‘di, nogiron o‘g‘lingizga gulday qizimni so‘rab kelishga?! – Buvgul enaning muddaosini eshitgan Majid aka tutaqib ketdi. – Yo Majidning qizi ko‘chada qolgan, deb o‘ylayapsizmi?!” (135-bet).

Muvaffaqiyatsiz muhabbatning zarbasidan Sobir o'nglana olmaydi. Garchi Marvariddan umuman umidini uza olmasa ham, baribir bu umid bilan hech nimani o'zgartirib bo'lmashligini bilgan Sobir alamini bosish uchun ichkilikka berilib ketadi, ikki-uch kunlab uyga kelmaslikka o'rganib qoladi. Ko'cha-ko'yda sovuq-issiqda loyga dumalab yotib qoladigan bo'ladi. Bu holat shubhasiz Sobirning sog'ligiga yomon ta'sir ko'rsata boshlaydi.

Buvgul ena ikkinchi marotaba Sobirning qistovi bilan Majid akalarnikiga sovchilikka borganda, eshitgan gapining zalvarini ko'tarish onaga og'irlik qiladi:

“- Yana qaysi yuz bilan keldingiz, opa? O'tgan safar kelishgandikku! Bechora bir beva ayol ekan, deb iltimosingizga ko'ndim, (Yo'q degan keskin javobni Sobirga bildirmaslik haqidagi iltimos – ta'kid bizniki A.D) lekin siz buni bilmadingiz. Ayol kishi bo'lsayam odamku, deb siylagandim, ammo siylaganni bilmadingiz. Bilganingizda ko'zingizni lo'q qilib yana uyimga bostirib kelmasdingiz? O'g'lingiz bor, desa yugurib kelaverasizmi? Aqlingiz bormi o'zi?! He, o'sha xotinchalish o'g'lingizniyam, sevgisiniyam... - qizining xarxashasidan xunobi oshib o'tirgan Majid aka ostona xatlashi bilan Buvgul enaning boshiga shunday malomat toshlarini yog'dirdiki, sho'rlik ayolning qo'lidan dasturxon tushib ketdi... Ko'chada qolgan jalab ham ulingizga o'zini ravo ko'rmaydi, endi sizga ochig'ini aytib qo'ya qolay. Ota-ona papalab katta qilgan qizini qorni to'q, usti but yuradi, deb erga bermaydi-ku, nahotki shu oddiy narsani ham tushunmasangiz?!

Majid aka naq yigirma daqiqa chamasi javradi, og'zidan bodi kirib, shodi chiqdi, aytmagan gapi qolmadi, hisob. Buvgul ena bularning barini quloq qoqmay eshitdi. Majid aka holdan toyib, jimib qolgandan keyingina sekin ortga burilarkan:

- Nima desangiz ham haqqingiz bor. Bundan battar gaplarni eshitishimni bilardim. Ammo bolamning sazasini o'ldirgim kelmadi... - dedi va ohista eshikni yopdi”. (140-bet).

Achchiq haqiqat ayni paytda kamsitish, xo'rlash, haqorat gaplardan qon bosimi ko'tarilib, gandaraklab ketayotgan ona unga peshvoz chiqqan o'g'liga bor gapni yana ayta olmaydi. O'g'lining yuragidagi umidni butunlay so'ndirishga

uning onalik mehri, ona yuragi dosh bermaydi. Ko'zi javdirab turgan Sobirga shunday bir vaziyatni yumshatadigan yolg'on to'qiydiki, uni eshitib o'g'li:

“ – Demak, butunlay uzib yuborishmabdi-da, a? – so'radi umidvor ohangda Sobir.

- Ha, - bor kuchini to'plab javob berdi Buvgul ena va sekin yonboshiga quladi”. (141-bet).

Marvarid qarindosh yigitga uzatilib ketadi. Ammo u ham baxtsiz edi. Ajrashib keladi. Marvaridning otasi uni ikkinchi bor yana majburlab turmushga beradi. Biroq Sobir undan hech ko'ngil uzolmaydi. Ozroq umid uyg'onib, Marvaridga yetishi mumkindek tuyulgan paytlar Sobir tartibga tushib qolar, yashashga qiziqishi uyg'onib qolar, umidi so'nganda yana ichkilikbozlik, kashandalik, ko'chalarda daraksiz qolib ketishlar... Buvgul enani ham, Sobirni ham ichdan yemira boradi.

Hikoyaning nomi :Yozsiz yil”. Yoz – Sobirning sog'lig'i uchun eng ma'qul fasl. Kasallik, og'riq issiq kunlarda Sobirni biroz chetlab o'tgandek bo'ladi. Vujudidagi og'riqlar barham topgandek bo'ladi. Bundan tashqari yoz hikoyada umid, yashash, hayot va sevgi ramzi hamdir. Ona va o'g'il bir umr yozni kutib yashashdi. Sobir borgan sari onasining ko'z oldida tugab borar, ayniqsa, o'limi yaqinlashgan sari, o'sha yilning yozi ham kechikib ketayotgandek uni og'riq, azob, umidsizlik iskanjasiga solar edi.

Ona uchun kutilgan, qachonlardir shunday bo'lishi muqarrar kun keldi. Sobir kechikkan yozning boshi bilan olamdan o'tadi. Uning o'limi bilan kunlar ham birdan isib ketadi: “Langillagan osmondan quyosh ayovsiz nur sochar, zamin olovga tashlangan yong'oq singari paqqos yorilib ketadigandek harsillar, dov-daraxtlar esa kundan kun ko'kka bo'y cho'zardi. Odamlar xursand. “Yomg'irning mo'l bo'lganidan ekin-tikinining avji baland. Bu yil arzonchilik bo'ladi. Xudo xohlasa!”

Bunday xursandchilik birgina Buvgul enaning ko'ngliga sig'masdi. Ayvon ustuniga suyanib, mung'ayib o'tirgan ona bir so'zni takrorlardi:

- Men yomon qoldim, sen yaxshi bor, bolam...

So‘ng birdan qahrlanib olov purkayotgan osmonga tikilarkan savdoyilarcha shivirladi:

- Odamni ermak uchun yaratib, uni eplay olmay qolganingdan keyin o‘limni o‘ylab topdingmi?.. Oloving mo‘l ekan, nega shuni vaqtida bermading?!” (160-bet)

Buvgul ena – jafokash, mehridaryo o‘zbek onalarining yorqin timsoli. O‘g‘lining majruhligi, kasalmandligi, o‘z teng-to‘shlari qatorida emasligi keksa, o‘zi ham kasalmand onani bir necha bor to‘shakka yiqitsa ham, shuncha marta qayta oyoqqa turar, yana Sobirning ko‘nglida muhabbat uyg‘onganda barcha onalardek sevinardi. Garchi bu ishning oqibati aniq bo‘lsa ham, farzandining quvonchi uchun Majid akaning barcha ta‘na-dashnomlarini ichiga yutadi. O‘g‘lining umidini asrashga-avaylashga harakat qiladi. Barcha narsadan sovigan, vujudidagi kasallik qarshisida ojiz qolib, eng so‘nggi damgacha to‘shakka mixlanib qolgan o‘g‘liga yakka o‘zi qaraydi. Uni beoqibat akasining, andishasiz yangasining qo‘liga qoldirmaydi yoki ularning maslahatiga kirib, Sobirni nogironlar uyiga topshirmaydi. Necha bor o‘lim to‘shagida yotib ham o‘lolmaydi. Chunki Sobirning yolg‘iz qolishini, qarovsiz qolishini o‘ylab, Ollohdan ajalga sabr berishini so‘raydi. Ishongani, dildoshi, sirdoshi, g‘amdoshi Sobir o‘lganida shuning uchun ham “Men yomon qoldim, sen yaxshi bor, bolam”, deya bo‘zlaydi onaizor.

Zulfiya Qurolboy qizining aksariyat hikoyalari o‘zbek oilalarining maishiy hayoti, oilaviy muammolariga bag‘ishlanadi. Bu muammolar oddiy ikir-chikirlar, kundalik yumushlar doirasida qolib ketmagan. Unda insoniy dard, iztirob, ko‘ngil kemptikliklari o‘zining yorqin ifodasini topgan.

Xulosa qilib aytganda, Saida Zununova, Salomat Vafo, Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalarida ko‘rib turganimizdek inson taqdiridan, uning qismatida teran axloqiy xulosalar, to‘xtamlar kelib chiqadi. Aslida yozuvchining badiiy niyati ham shundan iborat. Chunki ijodkorlar inson o‘z odobida, xulqida mukammal bo‘lmay, jamiyatda, ijtimoiy hayotda kamolotga erisholmaydi, degan konsepsiya bilan qalam tebratadi.

